

TURK XOQONLIGINING SOVET TARIXSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI (1917–1991-yillar)

Fayzullayev Dilshod Farhod o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: fayzullayevdilshod409@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-1054-9096>

Ilmiy rahbar: Z. U. Xaydarov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22934880>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turk xoqonligi (VI–VIII asrlar) tarixining Sovet tarixshunosligida (1917–1991 yillar) o‘rganilish bosqichlari, metodologik evolyutsiyasi va asosiy ilmiy konsepsiyalari tahlil qilinadi. Maqolada sovet davri tarixchilarining ko‘chmanchi davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum (“ko‘chmanchi feodalizm”), arxeologik va epigrafik manbalarni talqin qilish borasidagi qarashlari atroflicha yoritilgan. V.V. Bartold, A.N. Bernshtam, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorniy kabi yetakchi sovet turkologlarining ilmiy merosi taqqoslanib, marksistik mafkuraning tarixiy talqinlarga ta’siri baholangan.

Kalit so‘zlar: Turk xoqonligi, Sovet tarixshunosligi, turkologiya, ko‘chmanchi feodalizm, A.N. Bernshtam, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorniy, O‘rxun-Yenisey bitiklari, arxeologiya

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ТЮРКСКОГО КАГАНАТА В СОВЕТСКОГО ИСТОРИОГРАФИИ (1917–1991 гг.)

Аннотация: В данной научной работе анализируются этапы, методологическая эволюция и основные концепции изучения истории Тюркского каганата (VI–VIII вв.) в историографии Советского (1917–1991 гг.). В исследовании подробно рассматриваются взгляды советских историков на кочевую государственность, социально-экономический строй (“кочевой феодализм”), а также интерпретация археологических и эпиграфических источников. Сопоставляется научное наследие ведущих советских тюркологов (В.В. Бартольда, А.Н. Бернштама, Л.Н. Гумилева, С.Г. Кляшторного), оценивается влияние марксистско-ленинской идеологии на исторические концепции.

Ключевые слова: Тюркский каганат, советская историография, тюркология, кочевой феодализм, А.Н. Бернштам, Л.Н. Гумилев, С.Г. Кляшторный, орхон-енисейские памятники, археология

THE STUDY OF THE TURKIC KHAGANATE IN THE HISTORIOGRAPHY OF THE SOVIET (1917–1991)

Abstract: This scientific research analyzes the stages, methodological evolution, and main concepts of studying the history of the Turkic Khaganate (6th–8th centuries) in the historiography of the Soviet (1917–1991). The study examines in detail the views of Soviet historians on nomadic statehood, the socio-economic system (“nomadic feudalism”), and the interpretation of archaeological and epigraphic sources. The academic heritage of leading Soviet turkologists (V.V. Barthold, A.N. Bernshtam, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorny) is compared, and the influence of Marxist ideology on historical interpretations is evaluated.

Keywords: *Turkic Khaganate, Soviet historiography, Turkology, nomadic feudalism, A.N. Bernshtam, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorny, Orkhon-Yenisei inscriptions, archaeology*

KIRISH

Turk xoqonligi (552 – 744-yillar) Yevroosiyo qit’asining ulkan hududini qamrab olgan, Sharqiy Osiyodan Qora dengiz bo’ylarigacha bo’lgan geostrategik makonda siyosiy va madaniy birlikni o’rnatgan qudratli imperiyadir. Ushbu davlatchilikning paydo bo’lishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, etnik tarkibi hamda qo’shni sivilizatsiyalar (Xitoy, Vizantiya, Sosoniylar Eroni) bilan munosabatlarini o’rganish xalqaro turkologiya fanining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sovet Ittifoqi davrida (1917 – 1991-yy.) Turk xoqonligi tarixini tadqiq etish murakkab va ziddiyatli bosqichlarni bosib o’tdi. Bir tomondan, sovet tarix fani rasmiy davlat ideologiyasi hisoblangan marksizm-leninizm ta’limoti va uning besh bosqichli formatsion nazariyasiga to’liq bo’ysundirilgan edi. Bu holat tarixiy jarayonlarni sinfiy kurash va iqtisodiy munosabatlar qolipiga majburan solishga olib keldi. Ikkinchi tomondan esa, aynan sovet davrida Yevroosiyo bo’ylab keng ko’lamli arxeologik qazishmalar o’tkazildi, O’rxun-Yenisey yodgorligi, turkiy bitiklar va Xitoy manbalari chuqur filologik va tarixiy tahlil qilindi, turkologiyada jahonshumul kashfiyotlar amalga oshirildi. Maqolada Sovet tarixshunosligi Ramziy ravishda 4 bosqichda ko’rib chiqiladi:

- 1917-1945-yillardagi an’anaviy sharqshunoslik;
- 1945-1960-yillardagi mafkuraviy yondashuvlar va “ko’chmanchi feodalizm” konsepsiyasi;
- 1960-1980-yillardagi arxeologik va turkiy bitiklar asosidagi yangi tadqiqotlar;
- 1980-1991-yillardagi sovet tarixshunosligidagi o’zgarishlar.

1917-1945-yillardagi Turk Xoqonligiga oid tadqiqotlar.

1917-yilgi Oktyabr to’ntarishidan keyingi dastlabki o’n yilliklarda sovet tarixshunosligi chor Rossiyasi davridan meros qolgan sharqshunoslik an’alarini saqlab qolgan holda faoliyat yuritdi. Bu davrda imperiya davri turkologiyasining yirik namoyandasi akademik Vasily Vladimirovich Bartold (1869 – 1930) o’z tadqiqotlarini davom ettirdi [1. –B.118].

V.V. Bartold Markaziy Osiyo va Turkiston tarixi bo’yicha fundamental asarlarida Turk xoqonligining mintaq tarixidagi o’rmini ko’rsatib berdi. Biroq, Bartold yondashuvi asosan yozma manbalarga ya’ni Xitoy va arab manbalari tayanar edi. U ko’chmanchi jamiyatlarning davlatchilik darajasiga shubha bilan qaragan va ularning siyosiy tuzilmalarini harbiy-qabila ittifoqlari sifatida talqin qilgan [1. –B.125].

1930-yillardan boshlab sovet tarix fanida marksistik formatsion yondashuv ustuvor yo’nalishga aylandi. Ko’chmanchi jamiyatlarni sinfiy jamiyat sifatida izohlash va ularning ishlab chiqarish munosabatlarini aniqlash bosh masalaga aylandi.

Shu davrda yosh va g’ayratli tadqiqotchi Aleksandr Natanovich Bernshtam (1910–1956) sahnaga chiqdi. U 1930-yillarning oxirida Yenisey va Yettisuv hududlarida arxeologik tadqiqotlar o’tkazib, Turk xoqonligi davriga oid materiallarni to’play boshladi. Bernshtam chor davri tarixchilaridan farqli ravishda, turklarning faqat ko’chmanchi chorvachilik bilan emas, balki hunarmandchilik, shahar madaniyati va dehqonchilik bilan ham shug’ullanganini ko’rsatishga harakat qildi [2. –B.15].

1945-1960-yillardagi mafkuraviy yondashuvlar va “ko’chmanchi feodalizm” konsepsiyasi

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr sovet turkologiyasida nazariy va metodologik qarashlarning shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'ldi. 1946-yilda A.N. Bernshtam o'zining “Социально-экономический строй Орхон-енисейских тюрок VI-VIII веков” (“O'rxun-Yenisey turklarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi VI – VIII asrlarda”) nomli monografiyasini nashr etdi. Bu asar sovet tarixshunosligida Turk xoqonligi ijtimoiy tuzumini tizimli yoritgan birinchi fundamental tadqiqot edi [2. –B.5].

Bernshtam o'z asarida Turk xoqonligida “ko'chmanchi feodalizm” (patriarxal-feodal munosabatlar) qaror topgan degan g'oyani ilgari surdi. Uning fikricha, xoqonlikda yer va yaylovlar urug'-qabila aristokratiyasi (beklar, elteberlar) qo'lida to'plangan, qabila a'zolari esa ularga qaram (qora budun) bo'lgan [2. –B.45].

Biroq, 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida Stalin davri mafkuraviy bosimi kuchaydi. 1944-1951-yillarda VKP(b) (rus. ВКП(б) - Всесоюзная коммунистическая партия (большевиков); o'zb. Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bolsheviklar)) Markaziy Komitetining milliy respublikalar tarixi bo'yicha maxsus qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlarda ko'chmanchi imperiyalarni “bosqinchilik va qonli urushlar o'chog'i” sifatida qoralash, ularning o'troq dehqonchilik madaniyatlariga yetkazgan zararlarini bo'rttirib ko'rsatish talab qilindi.

Bu mafkuraviy tazyiq Markaziy Osiyo respublikalari tarixini yozishda o'z aksini topdi. Masalan, 1955-yilda nashr etilgan “O'zbekiston SSR tarixi” (I jild) kitobida Turk xoqonligi davri o'troq Sug'd va Xorazm madaniyatiga tanazzul olib kelgan davr sifatida baholandi [8. –B.210]. Shunga qaramay, taniqli sovet arxeologi va sharqshunosi A.Yu. Yakubovskiy hamda S.P. Tolstov kabi olimlar turk va sug'd madaniyatlarining o'zaro sintezini nazariy jihatdan asoslashga harakat qildilar.

1960-1980-yillarda arxeologiya va runik bitiklar asosidagi yangi tadqiqotlar

1960 – 1980-yillar sovet turkologiyasining “oltin davri” hisoblanadi. Bu davrda mafkuraviy bosim nisbatan yumshadi va ilmiy tadqiqotlarda manbashunoslik va arxeologik dalillarga tayanish ustuvorlik kasb etdi.

Ushbu davrning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Lev Nikolayevich Gumilev (1912–1992) bo'ldi. Uning 1967-yilda nashr etilgan “Древние тюрки” “Qadimgi turklar” monografiyasi sovet turkologiyasida tub burilish yasadi.

L.N. Gumilev Turk xoqonligi tarixini shunchaki harbiy-siyosiy voqealar ketma-ketligi emas, balki etnogenez nazariyasi va landshaft-iqlim omillari bilan bog'liq holda yoritdi [3. –B.115]. Gumilev turklarning harbiy san'ati, davlat boshqaruvi va sivilizatsiyaviy ta'sirini yuqori baholadi. U Xitoy manbalarini puxta tahlil qilib, Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklarining davlat boshqaruvi, siyosiy kurashlar, iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va boshqa ichki jarayonlarning rivojlanishini ochib berdi. Biroq, ko'pchilik rasmiy sovet tarixchilari Gumilevni marksistik sinfiy tahlildan yiroqlashganlikda va pasionarlik nazariyasini haddan tashqari idealizatsiya qilganlikda aybladilar. Pasionarlik nazariyasi - Lev Gumilyov tomonidan ishlab chiqilgan tarixiy-etnologik nazariyadir. Bu nazariyaga ko'ra, etnoslar (xalqlar)ning paydo bo'lishi, yuksalishi va tanazzuli ayrim insonlarda yuzaga keladigan "pasionarlik" deb ataluvchi kuchli ichki energiya va maqsad sari intilish bilan bog'liq [3. –B.204]. Bunga misol sifatida Birinchi Turk xoqonligining asoschisi Buning xoqon va ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonlarning mustaqillik va davlat tuzish yo'lidagi kurashlarini keltirish mumkin [3. –B.213].

Shu bilan bir vaqtda, Sergey Grigoryevich Klyashtorniy (1928–2014) o'zining 1964-yilda nashr etilgan “Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии” (“Qadimgi turk runik bitiklari Markaziy Osiyo tarixi manbasi sifatida”) asari bilan epigrafik

manbashunoslikda yangi sahifa ochdi [4 – B.12]. Klyashtorniy Kul Tegin, Bilge Xoqon va Tonyuquq bitiklarini shunchaki filologik obida emas, balki Turk xoqonligining ichki siyosiy va ijtimoiy tarixini aks ettiruvchi birinchi manba sifatida fundamental tadqiq etdi [4 – B.89].

Shuningdek, Mixail Ilich Artamonov o'zining 1962-yilda nashr qilingan “История хазар” (“Xazarlar tarixi”) asarida G'arbiy Turk xoqonligining Yevroosiyo dashtlaridagi ro'li, xoqonlikni zaiflashishi va Xazar xoqonligining shakllanishidagi o'rnini ko'rsatib berdi [7 – B.145].

1980-1991-yillarda sovet tarixshunosligidagi o'zgarishlar

1980-yillarga kelib sovet turkologiyasida to'plangan arxeologik va etnografik materiallar miqdori sifat ko'rsatkichiga aylandi. Janubiy Sibir, Oltoy, Tuva, Qozog'iston va Markaziy Osiyoda o'tkazilgan keng ko'lamlı arxeologik ekspeditsiyalar Turk xoqonligi moddiy madaniyatini batafsil tiklash imkonini berdi.

Arxeolog va tarixchi Dmitriy Glebovich Savinov (1941-2023) o'zining 1984-yilda nashr qilingan “Южной Сибири в древнетюркскую эпоху” (“Janubiy Sibir xalqlari qadimgi turk davrida”) monografiyasida arxeologik yodgorliklar (qabrlar, qurol-yarog'lar, ot anjomlari, kiyim-kechaklar) tahlili asosida Turk xoqonligining tabaqalashgan moddiy madaniyatini ko'rsatdi [5 – B.22]. Savinov turkiy madaniyat yodgorliklarini Oltoy va Yeniseydan Markaziy Osiyogacha bo'lgan hududlar kesimida ilmiy tasniflab, ularning tipologik tizimini ishlab chiqdi [5 – B.56].

O'zbekistonda esa akademik Karim Shoniyozov (1924-2001) o'zining 1974-yilda nashr qilingan “Об этногенезе узбекского народа” (“O'zbek xalqi etnogenezig a doir”) asarida Turk xoqonligi davrining o'zbek etnosining shakllanishidagi o'rnini ko'rsatib berdi. Shoniyozov turkiy qabilalarning (qarluqlar, chigillar, o'g'uzlar) O'rta Osiyoning o'troq aholisi bilan assimilyatsiya jarayonlarini ilmiy asosladi [6. – B.62].

1980-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan “Qayta qurish” (Перестройка) davri tarix fani ustidan mafkuraviy nazoratning barham topishiga olib keldi. Bu davrda sovet tarixshunosligida avval taqiqlangan yoki cheklangan mavzular - ko'chmanchilarning o'ziga xos sivilizatsiyaviy qadriyatlari, ularning jahon tarixidagi ijobiy ro'li xolis tahlil qilina boshlandi.

Sovet tarixshunosligida Turk xoqonligi masalasida bir-biriga qarama-qarshi bir necha konseptual (g'oyaviy) yo'nalishlar mavjud edi. Bulardan birinchi yo'nalish bu “Formatsion-ijtimoiy” yo'nalish (A.N. Bernshtam) bo'lib, u Turk xoqonligini sinfiy jamiyat va “ko'chmanchi feodalizm” modeli asosida tahlil qildi. Asosiy e'tibor sinfiy tabaqalanish va chorva mulkchiligiga qaratildi. Ikkinchi yo'nalish esa “Etnosotsial va landshaft” yo'nalishi (L.N. Gumilev) bo'lib u esa Xoqonlikni Yevroosiyo dashtlaridagi etnogenezig va pasionarlik portlashi mahsuli sifatida ko'rdi. Markaziy Osiyo ko'chmanchilarini o'ziga xos imperiya yaratuvchilari deb baholadi. Keyingi yo'nalish esa bu “Epigrafik va manbashunoslik” yo'nalishi (S.G. Klyashtorniy) hisoblanib u bitiklar va matnlar asosida xoqonlikning davlat boshqaruvi, “El” (davlat) va “Budun” (xalq) o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va elitaning mafkurasini ochib berdi.

Marksistik metodologiyaning turk xoqonligi talqiniga ta'siri

Marksistik-leninchilik metodologiyasining sovet turkologiyasiga ta'sirini salbiy va ijobiy baholash mumkin. Marksistik-leninchilik metodologiyada tarixiy jarayonlarni besh formatsiyaga (ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm davri) majburan moslashtirildi. Turk xoqonligi sun'iy ravishda “feodalizm” bosqichiga kiritilgan. O'troq-dehqonchilik sivilizatsiyalariga biryoqlama ustunlik berilib, ko'chmanchilar asosan vayron qiluvchilar sifatida ko'rsatilgan. VKP(b) qarorlari tufayli turkiy respublikalarda Turk xoqonligi tarixini o'rganish va o'z etnik ildizlarini turklar bilan bog'lash “pantiurkizm” va “burjua millatchiligi” deya ayblangan.

Shu bilan bir qatorda Marksistik-leninchilik metodologiyasi faqat hukmdorlar va urushlar tarixini emas, balki oddiy aholining iqtisodiyotini, hunarmandchiligini, savdo aloqalarini (Buyuk Ipak yo‘li) o‘rganishga zamin yaratildi. Davlat tomonidan moliyalashtirilgan yirik arxeologik ekspeditsiyalar natijasida ulkan moddiy va madaniy manbalar toplanib, fanga kiritildi.

XULOSA

Sovet davri tarixshunosligida Turk xoqonligini o‘rganish murakkab, ammo sermahsul bosqich bo‘ldi. Sovet turkologiyasi 1920 – 1930-yillardagi an‘anaviy-sharqshunoslik bosqichidan 1940-1950-yillardagi qat‘iy mafkuraviy va “ko‘chmanchi feodalizm” qoliplari davrini o‘tdi. 1960 – 1980-yillarda esa manbashunoslik, epigrafika va arxeologiya sohasida yuksak cho‘qqiga erishildi.

A.N. Bernshtam, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorniy, D.G. Savinov kabi olimlarning sa‘y-harakatlari evaziga Turk xoqonligi shunchaki ko‘chmanchi qabilalar birlashmasi emas, balki o‘ziga xos davlat boshqaruvi, yozuvi, tabaqalashgan madaniyati va Yevroosiyo tarixida muhim geostrategik o‘ringa ega bo‘lgan davlat ekanligi isbotlandi.

Marksistik dogmatizm, sinfiy kurash va formatsion yondashuv ko‘chmanchilar jamiyatining barcha ichki xususiyatlarini to‘liq ochib berishga imkon bermadi. Shuningdek, sovet davlatining milliy siyosati tufayli turkiy xalqlarning umumiy tarixiy merosi tahlili muayyan darajada cheklab qo‘yildi.

Shunga qaramay, sovet davrida to‘plangan katta manbashunoslik va arxeologik baza hamda yaratilgan fundamental asarlar hozirgi zamon mustaqil respublikalar turkologiya fani uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т. V: Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. - М.: Наука, 1968. - 757 с.
2. Бернштам А.Н. Социально-экономический строй Орхон-енисейских тюрок VI-VIII веков. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1946. - 208 с.
3. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. - М.: Наука, 1967. - 504 с.
4. Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. - М.: Наука, 1964. - 215 с.
5. Савинов Д.Г. Народы Южной Сибири в древнетюркскую эпоху. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1984. - 174 с.
6. Шаниязов К.Ш. Об этногенезе узбекского народа (историко-этнографический очерк). - Ташкент: Фан, 1974. - 294 с.
7. Артамонов М.И. История хазар. - Л.: Изд-во Государственного Эрмитажа, 1962. - 523 с.
8. История Узбекской ССР. Т. I. / Под ред. Я.Г. Гулямова. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955. – 544 с.